O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Z.R.Bozorov

INTEGRAL ALMASHTIRISHLARDAN MASALALAR TO‘PLAMI

Uslubiy qo‘llanma

“Durdona” nashriyoti

Buxoro – 2024

Ushbu uslubiy qo‘llanma Oliy ta’lim muassasalarining 70540101 - Matematika(yo’nalishlar bo’yicha) mutaxassisligida tahsil olayotgan magistrantlar uchun mo‘ljallab yozilgan. Qo‘llanmada xosmas integrallar, maxsus funksiyalar va bir nechta turdagi integral almashtirishlarga doir misol masalalar keltirilgan.

Taqrizchilar:

Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich, Buxoro muhandislik- texnologiya instituti Oliy matematika kafedrasi professori, (DSc).

Nuriddinov Javlon Zafarovich, Buxoro davlat universiteti Differensial tenglamalar kafedrasi dotsenti, (PhD).

KIRISH

Integral almashtirishlar matematika va texnikada kuchli vosita bo'lib, differentsial tenglamalar, signallarni tahlil qilish, tasvirni qayta ishlash va boshqa muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi. Integral almashtirishlar ko'p hollarda masalalarni tahlil qilish va yechishda juda qulaybo’lib, Ular funktsiyalarni bir fazodan boshqasiga almashtirishga imkon beradi,. Integral almashtirishlarning asosiy turlariga Furye, Laplas, Xartli va Hilbert kabi almashtirishlar kiradi.

Integral almashtirishlarning qo'llanilish sohalari juda keng.

Differensial tenglamalarni yechishda integral almashtirishlar murakkab differensial tenglamalarni algebraik tenglamalarga aylantirish orqali yechish imkonini beradi.

Signal tahlil qilishda Furye almashtirishi va uning diskret versiyasi signallarning chastota komponentlarini tahlil qilish uchun signalni qayta ishlashda keng qo'llaniladi.

Rasmlarga ishlov berishda integral almashtirishlar tasvirlarni filtrlash, siqish va tiklash uchun ishlatiladi.

Boshqarish nazariyasida Laplas integral almashtirishi dinamik tizimlarni tahlil qilish va boshqaruv tizimlarini sintez qilishga yordam beradi.

Optika va kvant mexanikasida integral almashtirishlar to'lqin funktsiyalari va to'lqin tarqalishini tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Integral almashtirishlar matematika va texnikaning asosiy vositalari bo'lib, fan va texnikaning turli sohalaridagi murakkab muammolarni chuqurroq tushunish va samarali hal qilishga yordam beradi.

I. XOSMAS INTEGRALLAR

1. Xosmas integrallar

Funksiyaning aniq integrali (Riman integrali) tushunchasini kiritishda integrallash oralig‘ining chekli bo’lishi talab etilgan edi.

Endi cheksiz oraliqda ($[a,+\infty)$; $(-\infty,a]$; $(-\infty,+\infty)$ oraliqlarda) berilgan funksiyaning shu oraliq bo‘yicha integral tushunchasini keltiramiz.

Chegaralari cheksiz xosmas integral tushunchasi. $f(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ oraliqda $(a\in R)$ berilgan bo‘lib, ixtiyoriy $[a,t]$ da $(a\le t<+\infty)$ integrallanuvchi bo‘lsin: $f(x)\in R([a,t])$.

Ushbu

$$F(t)=\int_a^t f(x)dx$$

belgilashni kiritamiz.

1-ta’rif. Agar $t\to+\infty$ da $F(t)$ funksiyaning limiti mavjud bo‘lsa, bu limiti $f(x)$ funksiyaning $[a,+\infty)$ cheksiz oraliq bo‘yicha xosmas integrali deyiladi va

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx$$

kabi belgilanadi:

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx=\lim_{t\to+\infty}F(t)=\lim_{t\to+\infty}\int_a^t f(x)dx. \qquad (1)$$

(1) integralni chegarasi cheksiz xosmas integral ham deb yuritiladi.

Qulaylik uchun, bundan keyin “chegarasi cheksiz xosmas integral” o‘rniga “integral” deymiz.

2-ta’rif. Agar $t\to+\infty$ da $F(t)$ funksiyaning limiti mavjud va chekli bo‘lsa, (1) integral yaqinlashuvchi deyiladi.

Agar $t\to+\infty$ da $F(t)$ funksiyaning limiti cheksiz yoki mavjud bo‘lmasa, (1) integral uzoqlashuvchi deyiladi.

1-misol. Ushbu

$$\int_0^{+\infty} e^{-x}dx$$

integralni qaraylik. Bu holda

$$F(t)=\int_0^t e^{-x}dx=-e^{-t}+1$$

bo‘lib,

$$\lim_{t\to+\infty}F(t)=1$$

bo‘ladi.

Demak, berilgan integral yaqinlashuvchi va

$$\int_0^{+\infty} e^{-x}dx=1.$$

2-misol. Ushbu $\int_a^{+\infty} \frac{dx}{x^\alpha}$ $(a > 0, \ \alpha > 0)$

integral uchun

$$F(t) = \int_a^t \frac{dx}{x^\alpha} = \begin{cases} \ln t - \ln a, & \text{агар} \quad \alpha = 1 \text{ бўлса} \\ \dfrac{t^{-\alpha+1}}{-\alpha+1} - \dfrac{a^{-\alpha+1}}{-\alpha+1}, & \text{агар} \ \alpha \neq 1 \text{ бўлса} \end{cases},$$

bo‘lib, $t \to +\infty$ da

$$F(t) \to \frac{a^{1-\alpha}}{\alpha - 1} \qquad (\alpha > 1),$$

$$F(t) \to +\infty \qquad (\alpha \le 1)$$

bo‘ladi. Demak,

$$\int_a^{+\infty} \frac{dx}{x^\alpha}$$

integral $\alpha > 1$ bo‘lganda yaqinlashuvchi, $\alpha \le 1$ bo‘lganda uzoqlashuvchi bo‘ladi.

3-misol. Ushbu

$$\int_0^{+\infty} \cos x dx$$

integral uzoqlashuvchi bo‘ladi, chunki $t \to +\infty$ da

$$F(t) = \int_0^t \cos x dx = \sin t$$

funksiyaning limiti mavjud emas.

Yuqoridagidek,

$$\int_{-\infty}^{a} f(x)dx, \quad \int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx$$

xosmas integrallar va ularning yaqinlashuvchiligi, uzoqlashuvchiligi ta’riflanadi:

$$\int_{-\infty}^{a} f(x)dx = \lim_{t \to -\infty} \int_t^a f(x)dx \ ,$$

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx = \lim_{\substack{u \to +\infty \\ v \to -\infty}} \int_v^u f(x)dx \ .$$

Yaqinlashuvchi xosmas integralning xossalari. Xosmas integralning turli xossalarini $f(x)$ funksiyaning $[a, +\infty)$ oraliq bo‘yicha olingan

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx$$

integrali uchun keltiramiz. Bu xossalar

$$\int_{-\infty}^{a} f(x)dx, \quad \int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx$$

integrallar uchun ham o’xshash keltiriladi.

1-xossa. Agar $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ integral yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda

$$\int_b^{+\infty} f(x)dx \quad (a < b)$$

integral ham yaqinlashuvchi bo‘ladi va aksincha . Bunda

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx = \int_a^b f(x)dx + \int_b^{+\infty} f(x)dx \qquad (2)$$

tenglik bajariladi.

2-xossa. Agar $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ integral yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\int_a^{+\infty} C \cdot f(x)dx$ ham $(C = const)$ yaqinlashuvchi bo‘lib,

$$\int_a^{+\infty} C \cdot f(x)dx = C \int_a^{+\infty} f(x)dx$$

bo‘ladi.

3-xossa. Agar $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ integral yaqinlashuvchi bo‘lib, $\forall x \in [a,+\infty)$ da $f(x) \geq 0$ bo‘lsa, u holda

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx \geq 0$$

bo‘ladi.

4-xossa. Agar $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ va $\int_a^{+\infty} g(x)dx$ integrallar yaqinla-shuvchi bo‘lsa, u holda $\int_a^{+\infty} (f(x) \pm g(x))dx$ integral ham yaqinla-shuvchi bo‘lib,

$$\int_a^{+\infty} (f(x) \pm g(x))dx = \int_{\mathrm{a}}^{+\infty} f(x)dx \pm \int_a^{+\infty} g(x)dx$$

bo‘ladi.

5-xossa. Agar $\forall x \in [a,+\infty)$ da $f(x) \leq g(x)$ bo‘lib, $\int_a^{+\infty} f(x)dx$ va $\int_a^{+\infty} g(x)dx$ integrallar yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx \leq \int_a^{+\infty} g(x)dx$$

bo‘ladi.

Faraz qilaylik, $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $[a,+\infty)$ da berilgan bo‘lib, $f(x)$ funksiya chegaralangan $(m \leq f(x) \leq M, \quad x \in [a,+\infty))$, $g(x)$ funksiya esa o‘z ishorasini o‘zgartirmasin $(\forall x \in [a,+\infty)$ da har doim $g(x) \geq 0$ yoki $g(x) \leq 0)$.

6-xossa. Agar $\int\limits_a^{+\infty} f(x)\cdot g(x)dx$ va $\int\limits_a^{+\infty} g(x)dx$ integrallar yaqin-lashuvchi bo‘lsa, u holda shunday o‘zgarmas $\mu(m \le \mu \le M)$ topiladiki,

$$\int\limits_a^{+\infty} f(x)\cdot g(x)dx = \mu \int\limits_a^{+\infty} g(x)dx \qquad (3)$$

bo‘ladi.

Odatda, bu xossa o‘rta qiymat haqidagi teorema deyiladi.

Xosmas integralning yaqinlashuvchiligi haqida quyidagi teorema o’rinli.

Teorema (Koshi teoremasi). $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ integralning yaqinla-shuvchi bo‘lishi uchun $\forall \varepsilon > 0$ son olinganda ham shunday $t_0 \in R$ $(t_0 > a)$ topilib, ixtiyoriy $t' > t_0$, $t'' > t_0$ bo‘lganda

$$\left| \int\limits_{t'}^{t''} f(x)dx \right| < \varepsilon$$

tengsizlikning bajarilishi zarur va yetarli.

Xosmas integralning absolyut yaqinlashuvchiligi. Aytaylik, $f(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ oraliqda berilgan bo‘lsin. Bunda, $\forall x \in [a,+\infty)$ uchun $f(x) \ge 0$ bo‘lishi shart emas

Ta’rif. Agar

$$\int\limits_a^{+\infty} |f(x)|dx$$

integral yaqinlashuvchi bo‘lsa, $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ integral absolyut yaqinlashuvchi deyiladi.

Agar $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ yaqinlashuvchi bo‘lib, $\int\limits_a^{+\infty} |f(x)|dx$ uzoqlashuvchi bo‘lsa, u holda $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ shartli yaqinlashuvchi integral deyiladi.

Teorema. Agar integral absolyut yaqinlashuvchi bo‘lsa, u yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Isbot. Aytaylik,

$$\int\limits_a^{+\infty} |f(x)|dx$$

integral yaqinlashuvchi bo‘lsin. Berilgan $f(x)$ va $|f(x)|$ funk-siyalar yordamida ushbu

$$\varphi(x) = \frac{1}{2}(f(x) + |f(x)|) \quad ,$$

$$\psi(x) = \frac{1}{2}(-f(x) + |f(x)|)$$

funksiyalarni tuzamiz.

Bu funksiyalar uchun, $\forall x \in [a,+\infty)$ da

1) $\varphi(x) \geq 0$, $\psi(x) \geq 0$

2) $\varphi(x) \leq |f(x)|$, $\psi(x) \leq |f(x)|$

3) $\varphi(x) - \psi(x) = f(x)$

bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan 2-teoremadan foydalanib, quyidagi

$$\int_a^{+\infty} \varphi(x)dx, \quad \int_a^{+\infty} \psi(x)dx$$

integral yaqinlashuvchiligini topamiz.

Unda

$$\int_a^{+\infty} (\varphi(x) - \psi(x))dx$$

integral ham yaqinlashuvchi bo‘ladi. Demak,

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx$$

yaqinlashuvchi bo‘ladi. Teorema isbotlandi.

Integralning yaqinlashuvchiligi alomatlari. Integralning bosh qiymati

1^0. Dirixle alomati. Faraz qilaylik, $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $[a,+\infty)$ oraliqda berilgan bo‘lsin.

1-teorema (**Dirixle alomati**). $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

1) $f(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ da uzluksiz va uning shu oraliqdagi boshlang‘ich $F(x)$ $(F'(x) = f(x))$ funksiyasi chegara-langan;

2) $g(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ da uzluksiz $g'(x)$ hosilaga ega ;

3) $g(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ da kamayuvchi;

4) $\lim\limits_{x\to+\infty} g(x) = 0$.

U holda

$$\int_a^{+\infty} f(x)g(x)dx$$

integral yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Misol. Ushbu

$$J = \int_1^{+\infty} \frac{\sin x}{x^\alpha}dx \qquad (\alpha > 0)$$

integralni yaqinlashuvchilikka tekshirilsin.

Yechish: Berilgan integralni quyidagicha

$$J = \int_1^{+\infty} \sin x \frac{1}{x^\alpha}dx \qquad (\alpha > 0)$$

yozib, $f(x) = \sin x$, $g(x) = \dfrac{1}{x^\alpha}$ deymiz. Bu funksiyalar yuqorida keltirilgan teoremaning barcha shartlarini qanoatlanti-radi.

1) $f(x)=\sin x$ funksiya $[1,+\infty)$ oraliqda uzluksiz va uning boshlang‘ich funksiyasi $F(x)=-\cos x$ funksiya $[1,+\infty)$ da chegara-langan;

2) $g(x)=\dfrac{1}{x^{\alpha}}$ $(\alpha>0)$ funksiya $[1,+\infty)$ da

$$g'(x)=-\frac{\alpha}{x^{\alpha+1}}$$

hosilaga ega va u uzluksiz;

3) $g(x)=\dfrac{1}{x^{\alpha}}$ $(\alpha>0)$ funksiya $[1,+\infty)$ da kamayuvchi;

4) $\lim\limits_{x\to+\infty} g(x)=\lim\limits_{x\to+\infty}\dfrac{1}{x^{\alpha}}=0$. $(\alpha>0)$

Unda Dirixle alomatiga ko‘ra

$$\int_1^{+\infty}\frac{\sin x}{x^{\alpha}}dx \qquad (\alpha>0)$$

integral yaqinlashuvchi bo‘ladi.

2^0. Abel alomati. Faraz qilaylik, $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $[a,+\infty)$ oraliqda berilgan bo‘lsin.

2-teorema (Abel alomati). $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

1) $f(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ da uzluksiz bo‘lib, $\int\limits_a^{+\infty} f(x)dx$ integral yaqinlashuvchi;

2) $g(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ da uzluksiz $g'(x)$ hosilaga ega va bu hosila $[a,+\infty)$ da o‘z ishorasini saqlasin;

3) $g(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ da chegaralangan.

U holda

$$\int_a^{+\infty} f(x)g(x)dx$$

integral yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Misol: $\int_0^{+\infty}(2x+1)e^{-x}dx$ xosmas integralni hisoblang

Yechish: $f(x)=2x+1, g'(x)=e^{-x}$, deb olib bo’laklab integrallaymiz.

$$\int_0^{+\infty}(2x+1)e^{-x}dx=-(2x+1)e^{-x}\ \Big|_0^{+\infty}+\int_0^{\infty}2e^{-x}dx=3$$

Ba’zi xosmas integrallarning qiymatlari. Quyida ba’zi xosmas integ-rallarning qiymatlarini keltiramiz:

1. $\int_0^{+\infty} e^{-x^2}dx = \frac{\sqrt{\pi}}{2}$,

2. $\int_0^{+\infty} \sin x^2 dx = \frac{\sqrt{\frac{\pi}{2}}}{2}$,

3. $\int_0^{+\infty} \cos x^2 dx = \frac{\sqrt{\frac{\pi}{2}}}{2}$,

4. $\int_0^{+\infty} \frac{\cos xy}{1+x^2}dx = \frac{\pi}{2}e^{-|y|}$,

5. $\int_0^{+\infty} \frac{x\sin xy}{1+x^2}dx = \frac{\pi}{2} sign\, ye^{-|y|}$,

6. $\int_0^{+\infty} \frac{\sin x^2}{x}dx = \frac{\pi}{4}$,

7. $\int_0^{+\infty} \frac{\sin^4 ax - \sin^4 bx}{x}dx = \frac{3}{8}\ln\frac{a}{b}$,

8. $\int_0^{+\infty} \frac{e^{-ax} - e^{-bx}}{x}\sin nxdx = arctg\frac{b}{n} - arctg\frac{a}{n} \quad (a > 0,\ b > 0,\ n \neq 0)$,

9. $\int_0^{+\infty} \frac{e^{-ax} - e^{-bx}}{x}\cos nxdx = \frac{1}{2}\ln\frac{b^2+n^2}{a^2+n^2}$.

MAVZUGA DOIR MISOLLAR

Xosmas integrallarni hisoblang:

1. $\int_{\infty}^{\infty} \frac{dx}{1+x^2}$

2. $\int_{2}^{+\infty} \frac{dx}{x^2-1}$

3. $\int_{-\infty}^{-1} \frac{dx}{x^2+1}$

4. $\int_{0}^{+\infty} e^{ax} sinbx, \quad a > 0, \qquad b \neq 0$

5.

$$\int_{0}^{+\infty} e^{-x} cosxdx$$

Xosmas integral yaqinlashuvchiligi ta'rifidan foydalanib xosmas integralni yaqinlashishga tekshiring

7.

$$\int_{0}^{+\infty} \frac{dx}{x^2+x+1}$$

8.

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{x^2-x+1}$$

9.

$$\int_{-\infty}^{0} \frac{(x+2)\,dx}{x^2+4}$$

10.

$$\int_{e}^{+\infty} \frac{1}{x^2 ln^2 x} dx$$

11.

$$\int_{0}^{\frac{\pi}{2}} \ln{(cosx)}dx$$

12.

$$\int_{0}^{1} \frac{x^3 arcsinx}{\sqrt{1-x^2}} dx$$

13.

$$\int_{1}^{2} \frac{cosx}{\sqrt{sinx}} dx$$

14.

$$\int_{1}^{\infty} (\sqrt{x+1}-\sqrt{x-1})\,dx$$

15.

$$\int_{1}^{\infty} (\sqrt{x^5+9x}-\sqrt{x^5-5x})\,dx$$

16.

p parametrga nisbatan xosmas integralni yaqilashuvchilikka tekshiring

17.

$$\int_{1}^{\infty} \frac{\ln{(1+sin\frac{1}{x^3})}}{x^p} dx$$

18.

$$\int_{e}^{\infty} \sin\left(\frac{1}{x^3}\right)\frac{1}{\ln^p x} dx$$

2. Xosmas integrallarni hisoblash

1. Nyuton-Leybnis formulasi. Ushbu

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx$$

xosmas integral yaqinlashuvchi bo‘lib, uni hisoblash talab etilsin.

$f(x)$ funksiya $[a,+\infty)$ oraliqda boshlang‘ich $F(x)$ funksiyaga ega va $x \to +\infty$ da $F(x)$ funksiya chekli limiti mavjud bo‘lsin:

$$\lim_{x\to+\infty} F(x) = F(+\infty).$$

Unda

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx = \lim_{x\to+\infty}\int_a^t f(x)dx =$$
$$= \lim_{t\to+\infty}(F(t) - F(a)) = F(+\infty) - F(a) = F(x)\Big|_a^{+\infty} \qquad (1)$$

bo‘ladi.

(1) formula Nyuton-Leybnis formulasi deyiladi.

1-misol. Ushbu,

$$\int_{\frac{2}{\pi}}^{+\infty} \frac{1}{x^2}\sin\frac{1}{x}dx$$

integral hisoblansin.

Ravshanki, $F(x) = \cos\frac{1}{x}$ funksiya $[\frac{2}{\pi},+\infty)$ oraliqda $f(x) = \frac{1}{x^2}\sin\frac{1}{x}$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasi bo‘ladi.

(1) formuladan foydalanib topamiz:

$$\int_{\frac{2}{\pi}}^{+\infty} \frac{1}{x^2}\sin\frac{1}{x}dx = \cos\frac{1}{x}\Big|_{\frac{2}{\pi}}^{+\infty} = 1.$$

2-misol. Ushbu,

$$\int_{-\infty}^{+\infty} sinx\, dx$$

Integral hisoblansin.

Yechish. $F(x) = -cosx$ funksiya $(-\infty; +\infty)$ oraliqda $sinx$ funksiyaning boshlang’chi, Nyuton -Leybnits formulasiga ko’ra

$$\int_{-\infty}^{+\infty} sinx\, dx = -cosx|_{-\infty}^{+\infty}$$

$x \to \pm\infty$ da $cosx$ funksiya limiti mavjud emas, demak integral uzoqlashuvchi.

2. Bo‘laklab integrallash. Faraz qilaylik, $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $[a,+\infty)$ oraliqda uzluksiz va uzluksiz, $f'(x)$ va $g'(x)$ hosilalarga ega bo‘lsin.

Agar

1) $\int_a^{+\infty} f(x)\cdot g'(x)dx$ $(\int_a^{+\infty} f'(x)g(x)dx)$ integral yaqinlashuvchi;

2) ushbu $\lim_{x\to+\infty}(f(x)g(x))$ limit mavjud va chekli bo‘lsa, u holda

$$\int_a^{+\infty} f'(x)\cdot g(x)dx \qquad \left(\int_a^{+\infty} f(x)g'(x)dx\right)$$

integral yaqinlashuvchi bo‘lib,

$$\int_a^{+\infty} f'(x)\cdot g(x)dx = \lim_{x\to+\infty}(f(x)g(x)) - f(a)\cdot g(a) - \int_a^{+\infty} f(x)g'(x)dx \qquad (2)$$

$$\left(\int_a^{+\infty} f(x)g'(x)dx = \lim_{x\to+\infty}(f(x)g(x)) - f(a)\cdot g(a) - \int_a^{+\infty} f'(x)g(x)dx\right)$$

bo‘ladi.

2-misol . Ushbu

$$\int_0^{+\infty} xe^{-x}dx$$

integral hisoblansin.

Yechish: Agar $g(x)=x, \quad f'(x)=e^{-x}$ deb olsak, unda

$$g'(x)=1, \quad f(x)=-e^{-x}$$

bo‘lib, (2) formulaga ko‘ra $(a=0)$

$$\int_0^{+\infty} xe^{-x}dx = \lim_{t+\infty}(-te^{-t}) - 0 + \int_0^{+\infty} e^{-x}dx = 1$$

bo‘ladi.

MAVZUGA DOIR MISOLLAR

Xosmas integrallarni bo‘laklab integrallashdan foydalanib hisoblang

1. $\int_0^{+\infty} \frac{e^x\,dx}{1-e^{2x}}$
2. $\int_0^{+\infty} xe^{-x^2}dx$
3. $\int_0^{+\infty} x^3\, e^{-x^2}dx$
4. $\int_0^{+\infty} (3x+2)e^{-x}dx$
5. $\int_0^{+\infty} xe^{-2x}dx$

Xosmas integrallarni Nyuton-Leybnits formulasidan foydalanib hisoblang

6. $\int_1^2 \frac{2x+1}{\sqrt{x^2+x-2}}dx$
7. $\int_0^1 \frac{1}{(2-x)\sqrt{1-x}}dx$

8. $\int_0^{0.5} \frac{1}{x ln^2 x} dx$

9. $\int_0^1 \frac{lnx}{\sqrt{x}} dx$

II-BOB. MAXSUS FUNKSIYALAR.

Klassik maxsus funksiyalarni o'rganish matematik tahlilning bir qismi bo'lib, uning barchasi gipergeometrik funksiyaga qaratilgan bo'lib, ularning differensial tenglamalari mos ravishda uchta va ikkita yagona nuqtalarni, shuningdek, maxsus holatlarni taqdim etadi. Quyida ba’zi maxsua funksiyalar va ularning xossalarini eslatib o’tamiz.

Beta funksiya va uning xossalari.

1-ta’rif.

$$B(a,b) = \int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx, \quad (a>0, b>0) \quad (1)$$

(1) integral Beta funksiya yoki birinchi tur Eyler integrali deyiladi va $B(a,b)$ kabi belgilanadi, $B(a,b)$ funksiya R^2 fazodagi

$$M = \{(a,b) \in R^2 : \ a \in (0; +\infty), b \in (0; +\infty)\}$$

to’plamda berilgandir. $B(a,b)$ funksiya $M = \{(a,b) \in R^2 : a \in (0,+\infty), b \in (0,+\infty)\}$ to‘plamda uzluksiz bo‘ladi.

Endi funksiyaning xossalarini ko’rib chiqamiz.

1^0. $B(a,b)$ integralni olamiz.

$$B(a,b) = \int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx \quad (2)$$

Bu integral a va b ga nisbatan simmetrik funksiyalardan iborat, ya’ni

$$B(a,b) = B(b,a) \quad (3)$$

2^0. (1) integral

$$B(a,b) = \int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx$$

ixtiyoriy $M = \{(a,b)\epsilon R^2 :\ a \in (0;\ +\infty), b \in (0;\ +\infty)\}\ (a_0 > 0, b_0 > 0)$ to'plamda tekis yaqinlashuvchi bo'ladi.

3^0 . B (a, b) funksiya $\mathrm{M} = \{(\mathrm{a},\mathrm{b})\epsilon R^2 : a\epsilon(0;+\infty), b\epsilon[0;+\infty)\}$ to'plamda uzluksiz funksiyadir.

1-teorema. $f(x,y)$ funksiya M_0 to'plamda uzluksiz va

$$I_1(y) = \int_a^b f(x,y)dx$$

Integral $[c,d]$ da tekis yaqinlashuvchi bo'lsin. U holda $I_1(y)$ funksiya $[c,d]$ oraliqda uzluksiz bo'ladi.

4^0 . $B(a,b)$ funksiya quyidagicha ham ifodalanadi

$$B(a,b) = \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{1+t^{a+b}} dt \qquad (4)$$

Isbot. (1) integralda $x = \frac{t}{1+t}$ almashtirish bajarilsa, u holda

$$B(a,b) = \int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx = \int_0^{+\infty} \left(\frac{t}{1+t}\right)^{a-1} (1 - \frac{t}{1+t})^{b-1} \frac{dt}{(1+t)^2}$$

$$= \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{(1+t)^{a+b}} dt$$

bo'ladi.

5^0 . $b = 1 - a\ (0 < a < 1)$ bo'lganda

$$B(a,1-a) = \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{1+t} dt = \frac{\pi}{sina\pi} \qquad (5)$$

(5) munosabatdan quyidagini topamiz.

$$B(\frac{1}{2},\frac{1}{2}) = B(\frac{1}{2}, 1 - \frac{1}{2}) = \frac{\pi}{sin\frac{\pi}{2}} = \pi$$

Beta funksiyaning xususiy holda uzluksiz hosilalarga ega, ya'ni

$$\mathrm{B}(\mathrm{a}, 1-\mathrm{a}) = \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{1+t} dt = \frac{\pi}{sina\pi}$$

$$B'_a(a, 1-a) = \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{1+t} lntdt = \left(\frac{\pi}{sina\pi}\right) = \frac{\pi^2 cosa\pi}{sin^2 a\pi}$$

$$B''_a(a, 1-a) = \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{1+t} ln^2 tdt = \left(\frac{\pi}{sina\pi}\right)'' = \frac{\pi^3 sin^3 a\pi + 2\pi^3 sina\pi cos^2 a\pi}{sin^4 a\pi}$$

va hokazo,

$$B^{(n)}(a, 1-a) = \int_0^{+\infty} \frac{t^{a-1}}{1+t} ln^n tdt = \left(\frac{\pi}{sina\pi}\right)^{(n)} \quad (n = 1, 2, 3, \ldots$$

bo'ladi.

6^0 . $\forall(a, b) \in M'(M' = \{(a, b) \in R2 \colon a \in (0; +\infty), b \in (1; +\infty)\}$ uchun

$$B(a, b) = \frac{b-1}{a+b-1} B(a, b-1) \tag{6}$$

bo'ladi.

Isbot. (1) integralni bo'laklab integrallaymiz.

$$B(a, b) = \int_0^1 x^{a-1} (1-x)^{b-1} dx = \int_0^1 (1-x)^{b-1} d\left(\frac{x^a}{a}\right)$$

$$= \frac{1}{a} x^a (1-x)^{b-1} I_0^1 + \frac{b-1}{a} \int_0^1 x^a (1-x)^{b-2} dx \quad (a > 0, \ \ b > 1)$$

Agar

$$x^a (1-x)^{b-2} = x^{a-1}[1-(1-x)](1-x)^{b-2}$$
$$= x^{a-1}(1-x)^{b-2} - x^{a-1}(1-x)^{b-1}$$

ekanligigni e'tiborga olsak, uholda

$$\int_0^1 x^a (1-x)^{b-2} dx = \int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-2} dx - \int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-2} dx$$
$$= B(a, b-1) - B(a, b)$$

bo’lib, natijada

$$B(a,b)=\frac{b-1}{a}[B(a,b-1)-B(a,b)]$$

bo’ladi. Bu tenglikdan esa

$$B(a,b)=\frac{b-1}{a+b-1}B(a,b-1)\ (a>0,b>1)$$

bo’lishini topamiz.

7. $\forall(a,b)\in$ M” uchun $M''=\{(a,b)\ \in R^2: a\in(1,\infty)b\in$(0, +∞)}

$$B(a,b)=\frac{a-1}{a+b-1}B(a-1,b)$$

bo’ladi.

Isbot. (1) integralni bo’laklab integrallaymiz.

$$B(a,b)=\int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx=\int_0^1 x^{a-1}d\left(\frac{(1-x)^b}{b}\right)=$$

$$=-\frac{1}{b}x^{a-1}(1-x)^b I_0^1$$

$$+\frac{a-1}{b}\int_0^1 x^{a-2}(1-x)^b dx=\frac{a-1}{b}\int_0^1 x^{a-2}(1-x)^b dx,$$

$$(a>1),(b>0)$$

$$x^{a-2}(1-x)^b=x^{a-2}(1-x)^{b-1}(1-x)=$$

$$=x^{a-2}(1-x)^{b-1}-x^{a-1}(1-x)^{b-1}$$

$$\int_0^1 x^{a-2}(1-x)^b dx=$$

$$=\int_0^1 x^{a-2}(1-x)^{b-1}dx-\int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx=B(a-1,b)$$

$$-B(a,b)$$

$$B(a,b)=\frac{a-1}{a+b-1}B(a-1,b)\ (\text{a}>1,b>0)$$

bo’lishini topamiz.

Xususan , $b=n\ (n\in N)$ bo’lganda

$$\mathrm{B(a,b)}=\mathrm{B(a,n)}=\frac{n-1}{a+n-1}B(a,n-1)$$

bo’lib, (6) formulani takror qo’llab, quyidagini topamiz.

$$B(a,n)=\frac{n-1}{a+n-1}*\frac{n-2}{a+n-2}*\dots*\frac{1}{n+1}B(a,1)$$

Ma’lumki, $B(a,1)=\int_0^1 x^{a-1}dx=\frac{1}{a}$, demak

$$B(a,n)=\frac{1*2*\dots*(a-1)}{a(a+1)(a+2)\dots(a+n-1)}. \tag{7}$$

Agarda (7) da $a=m\ (m\in N)$ bo’lsa, u holda

$$B(m,n)=\frac{1*2*\dots*(n-1)}{m(m+1)\dots(m+n-1)}=\frac{(n-1)!\,(m-1)!}{(m+n-1)!}$$

8. $B(a,b)$ funksiya uchun ushbu

$$B(a+1,b)=\frac{a}{a+b}B(a,b)\ \ (a>0,b>0)$$

formula o‘rinli bo‘ladi.

Isbot: Ravshanki,

$$B(a+1,b)=\int_0^1 x^a(1-x)^{b-1}dx.$$

Bu integralni bo‘laklab integrallaymiz:

$$B(a+1,b)=\int_0^1 x^a(1-x)^{b-1}dx=-\frac{1}{b}\int_0^1 x^a d((1-x)^b)=-\frac{1}{b}x^a(1-x)^b\Big|_0^1+\frac{a}{b}\int_0^1 x^a(1-x)^b dx=$$

$$=\frac{a}{b}\int_0^1 x^{a-1}(1-x)^b=\frac{a}{b}\left[\int_0^1 x^{a-1}(1-x)^{b-1}dx-\int_0^1 x^a(1-x)^{b-1}dx\right]=\frac{a}{b}B(a,b)-\frac{a}{b}B(a+1,b).$$

Natijada

$$B(a+1,b)=\frac{a}{b}B(a,b)-\frac{a}{b}B(a+1,b)$$

bo‘lib, undan

$$B(a+1,b)=\frac{a}{a+b}B(a,b)$$

bo‘lishi kelib chiqadi.

Gamma funksiya va uning xossalari.

Biz

$$\int_0^{+\infty} x^{a-1}e^{-x}dx, \qquad (1)$$

xosmas integralni qaraylik. Bu chegaralanmagan funksiyaning (a<1 da $x = 0$ maxsus nuqta) cheksiz oraliq bo‘yicha olingan xosmas integrali bo‘lishi bilan birga a (parametr) ga ham bog‘liqdir.

1-ta'rif: (1) integral gamma funksiya yoki II tur Eyler integrali deb ataladi va Γ(a) kabi belgilanadi. Demak,

$$\Gamma(a)=\int_0^{+\infty} x^{a-1}e^{-x}dx; \qquad (1)$$

Shunday qilib, $\Gamma(a)$ funksiya (0; +∞) da berilgandir. $\Gamma(a)$ funksiya $(0,+\infty)$ da uzluksiz bo‘ladi.

Γ(a) funksiyaning xossalarini qaraymiz.

1°. (1) integral

$$\Gamma(a)=\int_0^{+\infty} x^{a-1}e^{-x}dx$$

ixtiyoriy $[a_0,b_0](0<a_0<b_0<+\infty)$ oraliqda tekis yaqinlashuvchi bo’ladi.

2°. $\Gamma(a\ )$ funksiya $(0;+\infty)$ da uzluksiz hamda barcha tartibdagi uzluksiz hosilalarga ega va

$$\Gamma^{(n)}(a)=\int_0^{+\infty} x^{a-1}e^{-x}(lnx)^n dx \ (n=1,2,\dots.)$$

3°. $\Gamma(a)$ funksiya uchun ushbu $\Gamma(a+1) = a\Gamma(a)$ $(a > 0)$ formula o'rinli.

Beta va gamma funksiyalar orasidagi bog'lanishni quyidagi teorema ifodalaydi.

Teorema. $\forall (a,b) \in \{(a,b) \in R^2 : a \in (0,+\infty), b \in (0,+\infty)\}$ uchun

$$B(a,b) = \frac{\Gamma(a)\cdot\Gamma(b)}{\Gamma(a+b)}$$

formula o'rinli bo'ladi.

Isbot. Ushbu

$$\Gamma(s) = \int_0^{+\infty} x^{s-1}e^{-x}dx$$

integralda $x = (1+u)t$, $(t > 0)$ almashtirish bajarib, s ni $a+b$ ga almashtiramiz. Natijada

$$\Gamma(a+b) = \int_0^{+\infty} (1+u)^{a+b-1} t^{a+b-1} e^{-(1+u)t}(1+u)dt$$

bo'lib,

$$\frac{\Gamma(a+b)}{(1+u)^{a+b}} = \int_0^{+\infty} t^{a+b-1}e^{-(1+u)t}dt$$

bo'ladi.

Bu tenglikning har ikkila tomonini u^{a-1} ga ko'paytirib, $(0,+\infty)$ oraliq bo'yicha integrallaymiz:

$$\Gamma(a+b)\int_0^{+\infty} \frac{u^{a-1}}{(1+u)^{a+b}}du = \int_0^{+\infty}\left[\int_0^{+\infty} t^{a+b-1}e^{-(1+u)t}dt\right]u^{a-1}du$$

yoki

$$\Gamma(a+b)\cdot B(a,b) = \int_0^{+\infty}\left[\int_0^{+\infty} t^{a+b-1}e^{-(1+u)t}dt\right]u^{a-1}du.$$

Tenglikning o'ng tomonidagi integrallarning o'rinlarini almashtirsak

$$\Gamma(a+b)\cdot B(a,b) = \int_0^{+\infty}\left[\int_0^{+\infty} u^{a-1}e^{-(1+u)t}du\right]t^{a+b-1}dt$$

bo'ladi. Integralda $ut = y$ almashtirish bajaramiz:

$$\Gamma(a+b)\cdot B(a,b) = \int_0^{+\infty}\left[\int_0^{+\infty} y^{a-1}t^{b-1}e^{-t}e^{-y}dy\right]dt = \int_0^{+\infty} t^{b-1}e^{-t}dt\cdot\int_0^{+\infty} y^{a-1}e^{-y}dy = \Gamma(b)\cdot\Gamma(a).$$

Demak,

$$B(a,b) = \frac{\Gamma(a)\cdot\Gamma(b)}{\Gamma(a+b)}.$$

1-misol. Ushbu Puasson integrali hisoblansin.

$$\int_0^{+\infty} e^{-x^2}dx$$

Yechish: Integralda $x^2 = t$ almashtirish bajarsak

$$dx = \frac{1}{2\sqrt{t}}dt = \frac{1}{2}t^{-\frac{1}{2}}dt$$

bo‘lib,

$$\int_0^{+\infty} e^{-x^2}dx = \frac{1}{2}\int_0^{+\infty} t^{-\frac{1}{2}}e^{-t}dt = \frac{1}{2}\int_0^{+\infty} t^{\frac{1}{2}-1}e^{-t}dt = \frac{1}{2}\Gamma\left(\frac{1}{2}\right) = \frac{\sqrt{\pi}}{2}$$

ga ega bo’lamiz.

2-misol. Quyidagi integral hisoblansin

$$\int_0^{+\infty} \frac{dx}{1+x^3}$$

Yechish: Bu integralda

$$1+x^3 = \frac{1}{y}$$

almashtirish bajaramiz. Unda

$$x = \left(\frac{1-y}{y}\right)^{\frac{1}{3}},\ dx = \frac{1}{3}\left(\frac{1-y}{y}\right)^{-\frac{2}{3}} \cdot \left(-\frac{dy}{y^2}\right),$$

$$\int_0^{+\infty} \frac{dx}{1+x^3} = -\frac{1}{3}\int_1^0 y\frac{1}{3}\left(\frac{1-y}{y}\right)^{-\frac{2}{3}} \cdot \frac{dy}{y^2} = \frac{1}{3}\int_0^1 y^{-\frac{1}{3}}(1-y)^{-\frac{2}{3}}dy =$$

$$= \frac{1}{3}B\left(\frac{2}{3},\frac{1}{3}\right) = \frac{1}{3}\cdot\frac{\Gamma\left(\frac{1}{3}\right)\cdot\Gamma\left(\frac{2}{3}\right)}{\Gamma(1)} = \frac{1}{3}\cdot\frac{\pi}{\sin\frac{1}{3}\pi} = \frac{\pi}{3\cdot\frac{\sqrt{3}}{2}} = \frac{2\pi}{3\sqrt{3}}$$

bo‘ladi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.

1. Quyidagi Lejandr formulasini isbotlang

$$\Gamma(x)\Gamma\left(x+\frac{1}{2}\right) = \sqrt{\pi}2^{1-2x}\Gamma(2x).$$

2. $a > 0$ va $a + b > 0$ bo'lsin. U holda ushbu tenglik bajarilishini isbotlang.

$$\int_0^{+\infty} \xi^{a-1}\Gamma(b,\xi)\, d\xi = \frac{\Gamma(a+b)}{a}.$$

Gamma va beta funksiyalar va ularning xossalarini qo'llab integrallarni hisoblang.

3. $$\int_0^{a} x^2\sqrt{a^2 - x^2}\, dx, a > 0.$$

4. $$\int_0^{+\infty} \frac{\sqrt[4]{x}}{(1+x)^2}\, dx,$$

5. $$\int_0^{\frac{\pi}{2}} \sin^m x cos^n x dx$$

6. $$\int_0^{+\infty} x^p\, e^{-ax} lnx dx\,,\ a > 0.$$

7. $$\int_0^{1} \sqrt{x - x^2} dx$$

8. $$\int_0^{+\infty} \frac{dx}{1 + x^3}$$

9. $$\int_0^{+\infty} \frac{x^2 dx}{1 + x^4}$$

10 $$\int_0^{\frac{\pi}{2}} \sin^4 x cos^4 x dx$$

11. $$\int_0^{1} \frac{dx}{\sqrt[n]{1 - x^n}}, n > 1$$

12. $$\int_0^{+\infty} x^{2n}\, e^{-x^2} dx\,, n \in Z, n > 0.$$

13. $$\int_0^{\frac{\pi}{2}} tg^n x dx$$

14. $$\int_0^{1} \left(ln\frac{1}{x}\right)^p$$

15. $$\int_0^{+\infty} \frac{x^{p-1}\ln^2 x\, dx}{1 + x}$$

16. $$\int_0^{+\infty} \frac{xlnxdx}{1 + x^3}$$

Bessel funksiyalari va ularning xossalari.

Birinchi tur Bessel funksiyasi: $J_\nu(z)$ birinchi tur Bessel funksiyasi quyidagicha:

$$J_\nu(z) \coloneqq \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(-1)^k}{\Gamma(k+1)\Gamma(k+\nu+1)} \left(\frac{z}{2}\right)^{2k+\nu} \tag{1}$$

Bu yerda, z-kompleks o'zgaruvchi, ν- parametr bo'lib, haqiqiy yoki kompleks qiymatlarni qabul qiladi. ν- butun son bo'lganda, Bessel funksiyasi analitik funksiya bo'ladi:

$$J_{-n}(z) = (-1)^n J_n(z)\,, \qquad n = 1,2,\dots \tag{2}$$

$$J_n(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(-1)^k}{k!\,(k+n)!} \left(\frac{z}{2}\right)^{2k+n}$$

$$J_{-n}(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(-1)^k}{k!\,(k-n)!} \left(\frac{z}{2}\right)^{2k-n} = \sum_{s=0}^{\infty} \frac{(-1)^{n+s}}{(s+n)!\,s!} \left(\frac{z}{2}\right)^{2s+n}$$

Agar $\nu \notin Z$ bo'lsa, Bessel funksiyasi $\left(\frac{z}{2}\right)^\nu$ ko'paytuvchi tufayli $z = 0$ nuqtada turli xil qiymatlarni qabul qiladi. Shuning uchun, kompleks sohaning manfiy yarim o'qini kesib, z $|arg\ (z)| < \pi$ shart bilan olinadi. Trikomi ta'rifiga ko'ra, $\left(\frac{z}{2}\right)^\nu$ singulyar ko'paytuvchini (1) dan ajratib olishimiz mumkin:

$$J_\nu^T(z) \coloneqq \left(\frac{z}{2}\right)^{-\nu} J_\nu(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(-1)^k}{\Gamma(k+1)\Gamma(k+\nu+1)} \left(\frac{z}{2}\right)^{2k} \tag{3}$$

Bessel funksiyalari bu Fucks-Frobeniusning ikkinchi tartibli differensial tenglamasining ildizi sifatida ham tushuniladi:

$$\frac{d^2}{dz^2}u(z) + p(z)\frac{d}{dz}u(z) + q(z)u(z) = 0 \tag{4}$$

$p(z)$ va $q(z)$ lar ma'lum analitik funksiyalar. Agar $p(z)$ va $q(z)$ larni

$$p(z) = \frac{1}{z} \text{ va } q(z) = 1 - \frac{\nu^2}{z^2} \tag{5}$$

ko'rinishda olsak, (4) differensial tenglamadan, (3) ko'rinishidagi qatorga ega bo'lamiz. Natijada, 1-tur Bessel funksiyasi quyidagi differensial tenglamani qanoatlantiradi:

$$u''(z) + \frac{1}{z}u'(z) + \left(1 - \frac{\nu^2}{z^2}\right)u(z) = 0 \tag{6}$$

(6) tenglama, **Bessel differensial tenglamasi** deyiladi.

1-tur Bessel funksiyasining xossalari:

1. $\frac{d}{dx}\left[x^p J_p(x)\right] = x^p J_{p-1}(x)$
2. $\frac{d}{dx}\left[x^{-p} J_p(x)\right] = -x^{-p} J_{p+1}(x)$
3. $x J_p'^{(x)} + pJ_p(x) = x J_{p-1}(x)$
4. $x J_p'^{(x)} - pJ_p(x) = -x J_{p+1}(x)$
5. $J_{p-1}(x) - J_{p+1}(x) = 2 J_p'(x)$
6. $J_{p-1}(x) + J_{p+1}(x) = \frac{2p}{x} J_p(x)$
7. $\int x^{p+1} J_p(x)dx = x^{p+1} J_{p+1}(x) + C$
8. $\int x^{-p+1} J_p(x)dx = -x^{-p+1} J_{p-1}(x) + C$

Ikkinchi tur Bessel funksiyasi: $Y_\nu(z)$.

$\nu = n$, $(n = 0, \pm 1, \pm 2, \dots)$ da J_ν dan chiziqli erkli bo'lgan (6) ikkinchi tartibli differensial tenglamaning yechimini olish uchun, 2-tur Bessel funksiyasini kiritamiz:

$$Y_\nu(z) := \frac{J_{-\nu}(z)\cos(\nu\pi) - J_{-\nu}(z)}{sin(\nu\pi)}. \tag{7}$$

$\nu \in Z$ ar uchun tenglikning o'ng tomoni no'malum bo'lib qoladi, shuning uchun $Y_n(z)$ ni limit ko'rinishida yozib olamiz:

$$Y_n(z) := \lim_{\nu \to n} Y_\nu(z) = \frac{1}{\pi}\left[\frac{\partial J_\nu(z)}{\partial \nu}\Big|_{\nu=n} - (-1)^n \frac{\partial J_{-\nu}(z)}{\partial \nu}\Big|_{\nu=n}\right] \tag{8}$$

(8) dan quyidagi kelib chiqadi:

$$Y_{-n}(z) = (-1)^n Y_n(z) \tag{9}$$

ixtiyoriy haqiqiy son bo'lganda, (6) ikkinchi tartibli differensial tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$u(z) = \gamma_1 \mathrm{J}_\nu(\mathrm{z}) + \gamma_2 \mathrm{Y}_\nu(\mathrm{z}), \quad \gamma_1, \gamma_2 \in C \tag{10}$$

va bunga mos Wronskiy determinanti quyidagicha bo'ladi:

$$W\{\mathrm{J}_\nu(\mathrm{z}), \mathrm{Y}_\nu(\mathrm{z})\} = \frac{2}{\pi z} \tag{11}$$

Uchinchi tur Bessel funksiyalari: $H_\nu^{(1)}, H_\nu^{(2)}$.

1- va 2-tur Bessel funksiyalariga qo'shimcha ravishda, 3-tur Bessel funksiyalari yoki Hankel funksiyalari quyidagicha kiritiladi:

$$H_\nu^{(1)} := \mathrm{J}_\nu(\mathrm{z}) + i\mathrm{Y}_\nu(\mathrm{z}), \quad H_\nu^{(2)} := \mathrm{J}_\nu(\mathrm{z}) - i\mathrm{Y}_\nu(\mathrm{z}) \tag{12}$$

Bu funksiyalar Wronskiy determinanti orqali chiziqli erkli

$$W\{H_\nu^{(1)}, H_\nu^{(2)}\} = -\frac{4i}{\pi z} \tag{13}$$

(12) formulalarda $\mathrm{Y}_\nu(\mathrm{z})$ larning o'rniga (7) formuladan foydalansak, quyidagilarga ga bo'lamiz:

$$\begin{cases} H_\nu^{(1)}(z) := \dfrac{J_{-\nu}(z) - e^{-i\nu\pi} J_\nu(z)}{i\sin(\nu\pi)} \\ H_\nu^{(2)}(z) := \dfrac{e^{+i\nu\pi} J_\nu(z) - J_{-\nu}(z)}{i\sin(\nu\pi)} \end{cases} \tag{4}$$

(4) dan quyidagi muhim formulalarga ega bo'lamiz:

$$H_{-\nu}^{(1)}(z) = e^{+i\nu\pi} H_\nu^{(1)}(z), \quad H_{-\nu}^{(2)}(z) = e^{-i\nu\pi} H_\nu^{(2)}(z)$$

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

Mashqlar: Quyidagilarni isbot qiling:

1. $\left(\frac{\mathrm{d}}{\mathrm{xdx}}\right)^{\mathrm{m}} \left[\mathrm{x^p J_p(x)}\right] = \mathrm{x^{p-m} J_{p-m}(x)}$
2. $\left(\frac{\mathrm{d}}{\mathrm{xdx}}\right)^{\mathrm{m}} \left[\frac{\mathrm{J_p(x)}}{\mathrm{x^p}}\right] = (-1)^{\mathrm{m}} \frac{\mathrm{J_{p+m}(x)}}{\mathrm{x^{p+m}}}$

Quyida berilgan integrallarni soddalashtiring:

1. $\int x\, J_0(x)dx$
2. $\int x^4 J_3(x)dx$
3. $\int J_1(x)dx$
4. $\int x^{-2} J_3(x)dx$

Quyidagilarni isbotlang.

1. $J_{\frac{-1}{2}}(x) = \sqrt{\frac{2}{\pi x}} cosx$
2. $J_{-\frac{3}{2}}(x) = -\sqrt{\frac{2}{\pi x}}\left(\frac{cosx}{x} + sinx\right)$
3. $J_{5/2}(x) = \sqrt{\frac{2}{\pi x}}\left(\frac{3-x^2}{x^2} - \frac{3}{x} cosx\right)$
4. $\int_0^x sJ_0(s)ds = xJ_1(x).$
5. $J_{-n}(x) = (-1)^n J_n(x), n \in N$
6. $\frac{d}{dx}\left(\frac{J_p(x)}{x^p}\right) = -\frac{J_{p+1}}{x^p}$
7. $\int xJ_0(x)dx = xJ_1(x) + C$
8. $\int x^2 J_1(x)dx = -x^2 J_0(x) + 2xJ_1(x) + C$
9. $\int x^3 J_0(x)dx = 2x^2 J_0(x) + (x^3 - 4x)J_1(x) + C$
10. $\int xJ_p^2(\alpha x)dx = 0.5\left[x^2\left(J'_p(\alpha x)\right)^2 + \left(x^2 - \frac{p^2}{\alpha^2}\right)\left(J_p(\alpha x)\right)^2\right] + C$

Gipergeometrik funksiya va uning xossalari

Quyidagi

$$\boldsymbol{x(1-x)y'' + [c - (a+b+1)x]y' - aby = 0} \qquad (1)$$

gipergeometrik funksiya yoki *Gauss tenglamasi* deb ataluvchi tenglamani qaraymiz. Bu yerda a, b, c- ixtiyoriy parametrlar bo‘lib, haqiqiy yoki kompleks qiymatlar qabul qiladi. (a, b) tenglamada simmetrik ishtirok etadi.

(1) tenglamaning umumiy yechimini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\boldsymbol{y = c_1 F(a, b, c; x) + c_2 x^{1-c} F(a - c + 1, b - c + 1, 2 - c; x)}$$

bu yerda c_1 va c_2–∀ o‘zgarmaslar.

Agar $\boldsymbol{a = -n_1, b = -n_2}$, bunda $\boldsymbol{n_1 > 0; n_2 > 0 -}$ butun sonlar bo‘lsa, u holda gipergeometrik qator ko‘phadga aylanib, uning darajasi $\boldsymbol{n_1, n_2}$ sonlarning kichigiga teng bo‘ladi:

$$\boldsymbol{F(a,b,c;x) = \frac{ab}{c} F(a+1, b+1, c+1; x)}$$

formulani hosil qilamiz.

Gipergeometrik funksiyalar uchun quyidagi formulalar o’rinli:

$$\begin{cases} \boldsymbol{\frac{d}{dx}[x^a F(a,b,c;x)] = a x^{a-1} F(a+1,b,c,x)} \\ \boldsymbol{\frac{d}{dx}[x^b F(a,b,c;x)] = b x^{b-1} F(a,b+1,c,x)} \\ \boldsymbol{\frac{d}{dx}[x^{c-1} F(a,b,c;x)] = (c-1) x^{c-2} F(a,b,c-1,x)} \end{cases}$$

Mustaqil yechish uchun misol va masalalar:

Quyida keltirilgan elementar funksiyalarni gipergeometrik funksiya orqali ifodalarini isbotlang.

1. $(1+x)^n = F(-n, 1; 1, -x)$
2. $ln\frac{1+x}{1-x} = 2xF(0.5, 1; 1.5;\ x^2)$
3. $\ln(1+x) = xF(1,1;2,-x)$
4. $e^z = \lim_{b\to\infty} F(1, b; 1,\ \frac{x}{b})$
5. $arcsinx = xF(0.5, 0.5; 1.5; x^2)$
6. $arctgx = xF(0.5, 1; 1.5; -x^2)$

Mittag-Leffler funksiyalari

Mittag-Lefler funksiyasi ko‘rsatkichli funksiyani kasrli umumlashtirishdir. 1903 yilda Mittag-Lefler tomonidan kiritilgan, bitta parametrni o'z ichiga olgan va bugungi kunda o’z nomini olgan funksiyani eksponensial funksiyani umumlashtirish deb hisoblash mumkin. Mittag-Leffler funksiyasini va ikki, uch parametrli Mittag-Leffler funksiyasilarini ta’riflab, xossalarini keltiramiz.

Ta'rif 1. α parametrga ($Re\{\alpha\} > 0$) bog'liq bo'lgan quyidagi darajali qator bir parametrli Mittag-Leffler funksiyasi deyiladi va $E_\alpha(x)$ ko'rinishda belgilanadi:

$$E_\alpha(x) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{x^k}{\Gamma(\alpha k + 1)} \quad \alpha \in \mathbb{C}, Re(\alpha) > 0$$

yoki quyidagi ko'rinishda ham aniqlanadi:

$$E_\alpha(x^\alpha) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{x^{\alpha k}}{\Gamma(\alpha k + 1)} \quad \alpha \in \mathbb{C}, Re(\alpha) > 0.$$

Bir parametrli Mittag-Leffler funksiyasining xususiy hollarini keltirib o'tamiz.

1)α=0 da

$$E_0(x) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{x^k}{\Gamma(1)} = \sum_{k=0}^{\infty} x^k = \begin{cases} \frac{1}{1-x}, & |x| < 1 \\ \infty, & |x| \geq 1 \end{cases}.$$

2)α=1 da

$$E_1(x) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{x^k}{\Gamma(k+1)} = 1 + x + \frac{x^2}{2!} + \frac{x^3}{3!} + \ldots = e^x.$$

3)α=2 da

$$E_2(x) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{x^k}{\Gamma(2k+1)} = 1 + \frac{x}{2!} + \frac{x^2}{4!} + \frac{x^3}{6!} + \cdots = ch\sqrt{x} = \frac{e^{\sqrt{x}} + e^{-\sqrt{x}}}{2}.$$

Mittag-Leffler funksiyasining bir nechta turlari mavjud bo'lin, ular bir-biridan parametrlar va o'zgaruvchilar soni bilan farq qiladi. Ikki parametrli Mittag Leffler funksiyasini 1905-yilda Wiman tomonidan o'rganilgan.

Ta'rif 2. Faraz qilaylik $x \in \mathbb{C}$ va ikkita parametrlar $\alpha \in \mathbb{C}, \beta \in \mathbb{C}, \mathbb{R}e(\alpha) > 0, Re(\beta) > 0$ bo'lsin. U holda ikki parametrli Mittag Leffler funksiyasi ikki parametrlar bilan quyidagidarajali qator ko'rinishida aniqlanadi:

$$E_{\alpha,\beta}(x)=\sum_{k=0}^{\infty}\frac{x^k}{\Gamma(\alpha k+\beta)},\qquad \alpha,\beta\in\mathbb{C},\quad Re(\alpha)>0, Re(\beta)>0.$$

Bu ikki parametrli Mittag-Leffler funksiyasi bir parametrli Mittag-Leffler funksiyaning umumlashmasidir.

Ikki parametrli Mittag-Leffler funksiyasiga doir misollar

1) α=1,β=2;

$$E_{1,2}(x)=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{x^n}{\Gamma(n+2)}=1+\frac{x}{2!}+\frac{x^2}{3!}+\frac{x^3}{4!}+\cdots=\frac{1}{x}(1+\frac{x^2}{2!}+\frac{x^3}{3!}+\cdots-1)=$$

$$=\frac{1}{x}(\sum_{n=0}^{\infty}\frac{x^n}{n!}-1)=\frac{1}{x}(e^x-1)$$

2) α=2,β=2

$$E_{2,2}(x)=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{x^n}{\Gamma(2n+2)}=1+\frac{x}{3!}+\frac{x^2}{5!}+\frac{x^3}{7!}=\frac{1}{\sqrt{x}}(1+\frac{\sqrt{x}^3}{3!}+\frac{\sqrt{x}^5}{5!}+\cdots)=$$

$$=\frac{1}{2\sqrt{x}}\left(1+\sqrt{x}+\frac{\sqrt{x}^2}{2!}+\frac{\sqrt{x}^3}{3!}-\frac{\sqrt{x}^4}{4!}+\cdots+(-1)+\sqrt{x}-\frac{\sqrt{x}^2}{2!}+\frac{\sqrt{x}^3}{3!}+\frac{\sqrt{x}^4}{4!}\dots\right)$$

$$=\frac{1}{2\sqrt{x}}\left(e^{\sqrt{x}}-e^{-\sqrt{x}}\right)=\frac{sh\sqrt{x}}{\sqrt{x}}$$

3) α=1,β=3

$$E_{1,3}(x)=\sum_{k=0}^{\infty}\frac{x^k}{\Gamma(k+3)}=\frac{1}{2!}+\frac{x}{3!}+\frac{x^2}{4!}+\frac{x^3}{5!}+\cdots=\frac{1}{x^2}(1+x+\frac{x^2}{2!}+\frac{x^3}{3!}+$$

$$+(-1-x))=\frac{1}{x^2}(\sum_{k=0}^{\infty}\frac{x^k}{k!}-(1+x))=\frac{1}{x^2}(e^x-x-1)$$

Mittag –Leffler funksiyasini Mellin-Barnes tipidagi integral orqali ham ifodalash mumkin va u quyidagicha ko’rinishda bo’ladi:

Bir parametrli Mittag –Leffler funksiyasi:

$$E_\alpha(z) = \frac{1}{2\pi i}\int_{\mathbb{C}} \frac{t^{\alpha-1}e^t}{t^\alpha - z}dt\,;$$

Ikki parametrli Mittag –Leffler funksiyasi:

$$E_{\alpha,\beta}(z) = \frac{1}{2\pi i}\int_{\mathbb{C}} \frac{t^{\alpha-\beta}e^t}{t^\alpha - z}dt\,;$$

Bir parametrli Mittag –Leffler funksiyasining n-tartibli hosilasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\left(\frac{d}{dx}\right)^k E_k(x^k) = E_k(x^k), k \in N.$$

Ikki parametrli Mittag –Leffler funksiyasining $\mu > 0$ va $1 \le n \le k$ uchun n -tartibli hosilasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\left(\frac{d}{dx}\right)^k \left[x^{n-1}E_{k,n}(\mu x^k)\right] = \mu x^{n-1}E_{k,n}(\mu x^k).$$

Umumlashgan Mittag-Leffler funksiyasi

Umumlashgan Mittag-Leffler (3 parametrli Mittag-Leffler)funksiyasi quyidagi ko’rinishda aniqlanadi:

$$E^{\rho}_{\alpha,\beta}(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(\rho)_k}{\Gamma(\alpha k + \beta)}\frac{z^k}{k!} \quad z \in \mathbb{C}\,; \alpha, \beta, \rho \in \mathbb{C}.$$

Bu yerda $(\rho)_k$- Pochhammer simvoli va u quyidagicha aniqlanadi

$$(\rho)_k = \rho(\rho+1)(\rho+2)\ldots(\rho+k-1);$$

Bu funksiya ikki parametrli Mittag-Leffler funksiyasining umumlashlasidir, ya'ni ρ=1 bo'lsa, $E^{1}_{\alpha,\beta}(z) = E_{\alpha,\beta}(z)$ bo'ladi.

Eslatma. Faraz qilaylik $x \in \mathbb{C}$, $\alpha,\beta \in \mathbb{C}, Re\{\alpha\} > 0, Re\{\beta\} > 0$ bo'lsin va $k = 0,1,2,\ldots$. U holda ikki va uch parametrli Mittag-Leffler funksiyalari orasida quyidagi munosabat o'rinlidir:

$$\frac{d^k}{dx^k} E_{\alpha,\beta}(x) = k!\, E^{k+1}_{\alpha,\beta+\alpha k}(x).$$

Mustaqil yechish uchun topshiriqlar.

Quyidagi tengliklarni isbotlang.

1. $E_{1,2}(x)1 + E_{1,3}(x)$

2.Faraz qilaylik $\alpha > 0$ va $x \in R$ bo'lsin. U holda Mittag-Leffler funksiyasi uchun ushbu tenglik bajarilishini isbotlang.

$$\frac{1}{2}\left[E_\alpha(\sqrt{x}) + E_\alpha(-\sqrt{x})\right] = E_{2\alpha}(x)$$

3. Hisoblang.

$$xE_{2,2}(-x^2) = sinx$$

4. Hisoblang.

$$E_{-\alpha,\beta}(x) = \frac{1}{\Gamma(\beta)} - E_{\alpha,\beta}\left(\frac{1}{x}\right)$$

5. Hisoblang.

$$E_{-2,1}\left(-\frac{1}{x^2}\right) = 1 - \cos x$$

6. Hisoblang.

$$E_{\alpha,\beta}(-x) = \frac{1}{\alpha\Gamma(\beta-\alpha)} \int_0^1 \left(1 - \varepsilon^{\frac{1}{\alpha}}\right)^{\beta-\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-x\varepsilon)d\epsilon$$

7. Hisoblang.

$$E^{\rho}_{\alpha,\beta-\alpha}(x) - E^{\rho-1}_{\alpha,\beta-\alpha}(x) = xE^{\rho}_{\alpha,\beta}(x)$$

8. isbotlang

$$\int_0^x \varepsilon^{\beta-1} E^{\rho}_{\alpha,\beta-\alpha}(\mu\varepsilon^{\alpha})d\varepsilon = x^{\beta} E^{\rho}_{\alpha,\beta+1}(\mu x^{\alpha})$$

9. $\beta > 0$ uchun ushbu tenglik bajarilishini isbotlang.

$$\frac{d}{dz}E_{\beta}(z) = \frac{E_{\beta,\beta}(z)}{\beta}$$

11. $\alpha > 0$ son uchun quyidagini isbotlang:

$$E_{\alpha}(-x) = E_{2\alpha}(x^2) - xE_{2\alpha,\alpha+1}(x^2)$$

12. $x > 0\ va\ \alpha, \beta, \gamma > 0$ sonlar uchun quyidagini isbotlang:

$$\frac{1}{\Gamma(\gamma)}\int_0^x (x-\xi)^{\gamma-1}\,\xi^{\beta-1}E_{\alpha,\beta}(\xi^{\alpha})d\xi = x^{\beta+\gamma-1}E_{\alpha,\beta+\gamma}(x^{\alpha})$$

13. Isbotlang:

$$E_{\alpha,\beta}(-x) = \frac{1}{\alpha\Gamma(\beta-\alpha)}\int_0^1 \left(1-\xi^{\frac{1}{\alpha}}\right)^{\beta-\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-x\xi)d\xi$$

14. Isbotlang:

$$\left(x\frac{d}{dx}+p\right)E^{p}_{\alpha,\beta}(x) = pE^{p+1}_{\alpha,\beta}(x)$$

15. Isbotlang:

$$E_{1,2}(x) = 1 + xE_{1,3}(x)$$

16. Isbotlang:

$$xE_{2,2}(-x)^2 = sinx$$

17. $\rho = 2, \alpha = 1\ va\ \beta = 2$ uchun $E^{\rho}_{\alpha,\beta}$ ni hisoblang.

18. $\frac{d^n}{dx^n}E_n(x^n) = E_n(x^n)$ ni n=2 uchun isbotlang.

Foks funksiyasi va uning xossalari.

Foksning H-funksiyasi kasr tartibli hisobning maxsus funksiyalaridan bo'lib, xususiy hollarda Mittag-Leffler funksiyasini ifodalaydi. H funksiya Fox tomonidan kiritilgan bo'lib Meyer funksiyasining umumlashmasini ifodalaydi. Bundan tashqari H-funksiya Mellin-Braus tipidagi integral bilan quyidagicha aniqlangan.

$$H_{p,q}^{m,n}\left[z\left|\begin{smallmatrix}(a_1,A_1),\dots,(a_p,A_p)\\(b_1,B_1),\dots,(b_q,B_q)\end{smallmatrix}\right.\right]=H_{p,q}^{m,n}\left[z\left|\begin{smallmatrix}(a_p,A_p)\\(b_q,B_q)\end{smallmatrix}\right.\right]=\frac{1}{2\pi i}\int_{\Omega}\theta\, z^{-s}ds$$

bunda:

$$\theta(s)=\frac{\prod_{j=1}^{m}\Gamma(b_j+B_js)\prod_{k=1}^{n}\Gamma(1-a_k-A_ks)}{\prod_{j=m+1}^{q}\Gamma(1-b_j-B_js)\prod_{k=n+1}^{p}\Gamma(a_k+A_ks)}$$

bu yerda: $i=(-1)^{\frac{1}{2}}, z\neq 0, va\ z^{-s}=\exp\{-s[\ln|z|+iargz]\}, 0\leq n\leq p, 0\leq m\leq q, A_e, B_j\in R_+, a_e, B_j\in\mathbb{C}(R), e=1,2,\dots,p, j=1,2,\dots,q.$

Integral yaqinlashuvchi bo'lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1.) $C>0, |argz|<\frac{1}{2}\pi c\ va\ z\neq 0;$

2.) $C=0, pD+Re(E)<-1, argz=0\ va\ z\neq 0$

bunda

$$C:=\sum_{j=1}^{n}A_j-\sum_{j=n+1}^{p}A_j+\sum_{j=1}^{m}B_j-\sum_{j=m+1}^{q}B_j$$

$$D:=\sum_{j=1}^{q}B_j-\sum_{j=1}^{p}A_j\ E:=\sum_{j=1}^{q}b_j-\sum_{j=1}^{p}a_j+\frac{p-q}{2}$$

H-funksiya uchun quyidagi rekurent formulalar o'rinli :

$$H_{p,q}^{m,n}\left[z\left|\begin{smallmatrix}(a_1,A_1),\dots,(a_p,A_p)\\(b_1,B_1),\dots,(b_{q-1},B_{q-1}),(a_1,A_1)\end{smallmatrix}\right.\right]=H_{p-1,q-1}^{m,n-1}\left[z\left|\begin{smallmatrix}(a_2,A_2),\dots,(a_p,A_p)\\(b_1,B_1),\dots,(b_{q-1},B_{q-1})\end{smallmatrix}\right.\right]$$

